



## EKALOGIYANI INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

**Ruxsora G'ulomova Buriyevna**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

**Qurbonova Aziza Kamol qizi**

*Milliy g'oya manaviyat asoslari va huquq talimi yo'nalishi II -kurs talabasi*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada Ekologiya tabiat va atrof muhitni buzilishining inson hayotiga ko'rsatadigan tasiri va ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish uchun davlatimiz rahbari tomonidan chiqarilgan farmonlar haqida so'z boradi

**Kalit so'zlar:** ekologiya, tabiat, atrof muhit, atmosfera

**Абстрактный** В данной статье рассказывается о влиянии экологии на жизнь человека и об указах главы нашей страны по охране экологии и окружающей среды.

**Ключевые слова:** экология, природа, окружающая среда, атмосфера

**Abstract** This article discusses the impact of environmental degradation on human life and the decrees issued by the head of our state to protect the environment and ecology.

**Keywords:** ecology, nature, environment, atmosphere

Olamni tuzilishi sirli va murakkab hisoblanadi. Bu dunyoda yashayotgan har bitta tirik mavjudot tashqi muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Qadimgi davr faylasuflari ham o'z asarlarida o'simliklar, hayvonlar va barcha tirik jonzorlar hayot tarzi haqidagi ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Insonlar tabiat bilan uyg'un holda yashaganlar, shuning uchun tabiatni o'rganish ular uchun tabiiy ehtiyojga aylanib brogan. Shu tariqa insonlar tabiatda sodir bo'ladigan jarayonlarning sirli tomonini o'rgana boshlagan. Shundan keyin tabiatdagi hayotning mohiyatini anglab yetish imkoniyati yuzaga kelgan. Davrlar o'tib "ekologiya" termini yuzaga kelgan. Ekologiya so'zi yunoncha "Oikos" -uy, boshpana "logos" - fan talimot degan manolarni anglatadi. Hozirgi kunga kelib ekologiya muamosi dolzarb muamolardan biri hisoblanib kelmoqda. O'tgan asrning oxiriga kelib inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar muvozanatining buzilishi natijasida atrof muhitda ekologik vaziyat keskin o'zgarishlarga yuz tutdi. [1] Hozirda yer yuzida global regional va mahalliy ekologik muammolar vujudga kelganligini alohida takidlab o'tishimiz zarur.

Tirik mavjudotlarni o'rab turgan ekologik muhit asosan insoniyat tomonidan salbiy tomonga o'zgartirib yuboriladi, buning asosiy sababi zavod-fabrikalar,



transportlar va ulardan chiqayayotgan chiqindilardir. Bu o'zgarishlar atrof muhitni shu darajada o'zgartiradiki barcha tirik mavjudodlar qatori inson salomatligiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.[2] Atrofdagi mashinalar va zavodlardan zaharli gazlarning chiqishi, plastic idishlarning ishlab chiqarilishi atmosferaga va inson hayotiga salbiy tasir ko'rsatadi.

Davlatimiz rahbari 2017-yil 21-apreldagi farmoniga muvofiq ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qayta tashkil etilib uning zimmasiga ekologik holatni yaxshilash saqlash, tashish utilizatsiya qilish va qayta ishlash borasida ulkan vazifalar qo'yiladi. Insonlarning tabiatga bo'lgan salbiy munosabati natijasida ekologik muammolar ko'payishiga olib keldi va avj olib ketdi.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining IX bobi ekologiya haqida moddalari mavjud. Ekologik muammolarni bartaraf etish va tabiatni asrash uchun bolalarga ekologik talim nazariyasining o'rganish obyekti maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ekologik jarayonlardir. Barcha pedagogic fanlari singari bolalarning ekologik tarbiya nazariyasi ham bir qatorda aniq bir muomolarni hal qilish talim muassasalarida ekologik ta'lim jarayonini takomillashtirishga hissa qo'shishga qaraqiladi.[3] Hozirgi kunda ekologiya haqida eshitganimizda, biz tabiatga ta'sirimiz haqida o'ylaymiz. Va bu fikrlar haqiqat bo'ladi. Gap shundaki, ekologiyaning eng muammoli muammosi aynan insonning atrof-muhitga salbiy ta'siri (atmosfera va suvga zararli moddalarning chiqarilishi, brakonerlik, o'rmonlarni kesish va ko'llar va botqoqlarni quritish). Bugungi kunda ko'plab jamoat tashkilotlari ushbu muammolarni hal qilishga harakat qilmoqdalar, ammo bu juda qiyin. Oddiy odamlar faqat ko'cha va suv havzalarida axlat tashlamasliklari, kamroq mashina haydashlari va ekologik toza mahsulotlar iste'mol qilishlari mumkin."Tabiatdagi salbiy o'zgarishlar majrnuu birinchi gaida insonlar salomatiigiga katta ziyon yetkazmoqda. Aholining umurniy kasallanish darajasi to'xtovsiz o'sib bormoqda, nafas yo'llari, oshqozon-ichak, onkologik, allergik, yurak, qon-tornir va asabkasalliklari ko'payib, yangi noma'iurn kasalliklar paydobo'lmoqda. Dunyoni larzaga solib turgan SPID kasalligi brogan sari ko'proq kishilarni o'z domiga tortmoqda. Tabiatdagi salbiyo'zgarishlar oqibatida inson yashash muhitinining yomonlashuvi bilan xarakterlanadigan ekologik muammolar yuz bermoqda. [4]

Inson sivilizatsiyasining rivojlanishi va uning tabiat bag'riga chuqurroq kirib boorish oqibatida ahvol tubdan o'zgardi. Bugungi kunda ibtidoiy sof tabiat haqida gapirmasak ham boladi. Chunki yer yuzida o'rmonlar qirildi, kata-katta hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, dorilar bilan o'g'itlandi, har xil chiqindi hamda gazlar bilan havo vatabiat ifloslandi. Bundan tashqari tabiatda



toshqinlar, o'rmon yong'inlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz beradi. Bularning barchasi tabiatning tabiiy muvozanatiga zarar yetkazdi. Hozirgi vaqtda dunyoda biologik xilma-xillikning qisqarishi, iqlim o'zgarishi, atrof muhitning ifloslanishi kuzatilmoqda. Bularning barchasi insonning dunyoqarashiga ta'sir qiladi. Insonning tabiatga va umuman ekologiyaga munosabati islohga muhtoj, xususan, bu g'oyani bolalarga yoshligidanoq singdirish, ta'lim dasturlariga kiritish, ya'ni ekologik ta'limni rivojlantirish ekologik madaniyatni oshirishda asosiy omilga aylandi.[5] Ekologik ta'lim tizimli va uzluksiz jarayon bo'lib, uning maqsadi nazariy va amaliy bilimlarni, dunyoqarashni shakllantirishdan, xulq-atvorni, shu jumladan atrof muhitga, tabiatdan foydalanishga va umuman ekologiyaga munosabatni yaxshilashdan iborat. Insoniyat atrof muhitga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir texnologik taraqqiyot, aholi soni va ishlab chiqarish ko'payishi bilan muntazam ravishda kuchayib boradi. Tabiiy resurslardan o'ylamasdan foydalanish, ularni muhofaza qilish va tiklash choralarning yetishmasligi, atrof muhitning kuchli ifloslanishi halokatli iqlim o'zgarishiga olib keladi. Oqibatda atrof muhit o'zgarib, hayvonlar va o'simliklarning ko'p turlarining yashash sharoiti buzilayapti, kasalliklar ko'paymoqda, umuman olganda, odamlarning turmushi va salomatligi yomonlashayotir.[6] Shu munosabat bilan ekologik xavfsizlikni ta'minlash insoniyat uchun nihoyatda muhim vazifa ekanligini anglab yetish zarur

Atrof muhitni asrash uchun undagi tabiat inom etgan ne'matlarga zarar yetkazmaslik undagi jamiki narsalarni ardoqlashni o'sib kelayotgan yosh avlodga tushuntirish uchun maktab va bog'chalarda ekologik ta'lim va tarbiyani taminlash lozim. Atrof muhitning tozaligi sofliqi insonlar salomatligi uchun ham muhim hisoblanadi. Hozirda yurtimizda tozalik qoidalariga amal qilgan holda barcha hududlarda chiqindilarni kamaytirish maqsadida chiqindilarni qayta ishlash zavodlari bunyod etilmoqda.[7] Zaharli tutunlarni chiqishini oldini olish maqsadida elektromobil avtomashinalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Dunyo mamlakatlarida ekologiya atrof muhitni muhofaza qilish uchun keng targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Tabiiy resurslar insonga yashash imkoniyatini beruvchi vosita bo'lib, ulardan foydalanish va ulami muhofaza qilish tartib-qoidalarini bilish insoniyatga barqaror ekologik rivojlanish sharoitini yaratadi. Hozirgi kunda garchi ekologik bilimlarning ommaviy tus olganligi, ekologiya fanining barcha talaba yoshlarga o'qitilayotganligi tabiiy resurslarga oqilona yondashish malakasini shakllantirayotgan bo'lsa, ba'zan, tabiiy resurslar tugab qolishi mumkinmi. Shuni unutmaslik kerakki, qayta tiklanadigan va tugamaydigan resurslardan to'g'ri foydalanilganda ular hech qachon tugab qolmaydi. Ammo qayta tiklanmaydigan resurslar qachonlardir tugashi muqarrar. Shuni hisobga olib, inson aql-



zakovatining mahsuli sifatida bularning o'miga sun'iy resurslar, masalan, metall o'rniga plastik mahsulotlar yaratilib, ulardan quvurlar, podshipniklar va boshqalami tayyorlashda foydalanilmoqda.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi ekologiya Atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarish vairligi.
2. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy unversititi v.b dodsenti Ra'no Rustamova Academic Research in Educational Scational Scienees ISSN: 2181-1385 [2022]
3. Shahrizabz davlat pedagogika institute o'qituvchisi G'ulomova Ruxsora Ekologik pedagogika va psixologiya ta'lim metodologiyasining nazariy asosi sifatida.
4. Q.G'afurov texna fanlari doktori professor, M Rustamov Respublikaning "Ekosan" xalqaro jamg'armasining Namangan viloyati bo'limi derektori "Musiqa" nashriyoti Toshkent 2007 13- bet
5. Orolbo'yi mintaqasida davlat ekologik siyosatini takomillashtirish zaruriyati. Ruxsora G'ulomova Buriyevna NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-5] ISSN:2181-1458 ISSN:2181-0427  
397-401 tlar.
6. Ruxsora, G'ULOMOVA. "DAVLAT EKOLOGIK SIYOSATINING IJTIMOY MOHIYATI." *News of UzMU journal* 1.1.3. 1 (2024): 93-96.
7. G'Ulomova, Ruxsora. "O'ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR." *Academic research in educational sciences* 5. TSUE Conference 1 (2024): 608-612.